

# Gruzin tili

Vikipediya, ochiq ensiklopediya

**Gruzin tili** — gruzin xalqi tili. Kavkaz (iberg-kavkaz) tillari kartvel guruhiga mansub. Unda.3917,7 ming kishi soʻzlashadi. Gruzin adabiy tili tarixi 2 davrga ajraladi: qad. gruzin (5 — 11-asrlar), hozirgi gruzin (12-asrdan boshlab). Kart dialekta gruzin adabiy tilining asosini tashkil etadi. G. t.ning dialektlararo differensiyasi juda kuchsiz. Hoz. G. t. fonetika tizimida 5 unli 25 undosh boʻlib, bular 3 turga ajraladi: jarangli, jarangsiz va boʻgʻiz usti. Morfologiyada prefiks (old qoʻshimcha) va suffiksdan foydalaniladi. G. t.ning morfologik tuzilishi agglyutinatidir. Grammatik jins farqlanmaydi, 6 ta kelishik bor. Tushum kelishigi yoʻq, uning oʻrnida ergativlik mavjud. Koʻmakchilardan keng foydalaniladi. G. t. sintaksisi predikativlik tuzilmaga ega. Ergash gapli qoʻshma gaplar ancha taraqqiy etgan<sup>[1]</sup>.

## Manbalar

- OʻzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil



*Jahon tillaridan biri haqidagi ushbu maqola **chaladir**. Siz uni **boyitib**, ([https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Gruzin\\_tili&action=edit](https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Gruzin_tili&action=edit)) **Vikipediya**ga yordam berishingiz mumkin.*

"[https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Gruzin\\_tili&oldid=2009454](https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Gruzin_tili&oldid=2009454)" dan olindi

**Bu sahifa oxirgi marta 16-Avgust 2018, 19:46 da tahrir qilingan.**

Matn [Creative Commons Attribution-ShareAlike litsenziyasi](#) boʻyicha ommalashtirilmoqda, alohida holatlarda qoʻshimcha shartlar amal qilishi mumkin ([batafsil](#)).

	<b>Gruzin tili</b>	
<b>Milliy nomi</b>	<span>ქართული</span>	
<b>Mamlakatlar</b>	<span><span><span></span></span><span> </span></span> Gruziya	
<b>Soʻzlashuvchilarning umumiy soni</b>	4.300.000 (1993)	
	<b>Turkumlanishi</b>	
<b>Alifbosi</b>	<span>gruzin alifbosi</span>	
	<b>Til kodlari</b>	
<b>ISO 639-1</b>	ka	
<b>ISO 639-2</b>	kat	
<b>ISO 639-3</b>	kat	